

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hisob-kitob tizimini takomillashtirish va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning to‘lov intizomini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-maydagi PF-141-son Farmoni bo‘yicha PRESS RELIZ

Mazkur Farmonning qabul qilinishining asosiy maqsadi barcha tadbirkorlik sub’ektlariga bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘lovlar tizimida teng raqobat muhitini yaratishdir.

Hujjatda tadbirkorlik subyektlari tomonidan pul mablag‘larining asosiy va ikkilamchi bank hisobvaraqlarini chetlab o‘tib, maxsus maqsadli hisobvaraqlar orqali aylantirishiga chek qo‘yuvchi normalar belgilandi.

Unga ko‘ra, 2022-yil 15-iyundan boshlab:

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tijorat banklarida ochilgan qonunchilik hujjatlariga muvofiq undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan maxsus maqsadli hisobvaraqlar tugatiladi;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tugatilgan maxsus maqsadli hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qoldig‘i ularning asosiy yoki ikkilamchi hisobvaraqlariga o‘tkaziladi.

Endilikda maxsus maqsadli hisobvaraqlar ochish yoki yopish Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Markaziy bank bilan kelishilgan holda faqat Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshiriladi.